



PEDAGOGIK FAOLIYATNI TASHKIL ETISHDA KREATIV YONDASHUV

*Qaynarova Iqbol Valiyevna**Chirchiq davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi**Tojitudinova Yorqinoy Ilxom qizi,**Axmakov Maxmudjon Maxsud o'g'li**Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabalari*

Annotatsiya: Ushbu maqolada pedagogik faoliyatni tashkil etishda kreativ yondashuv asosida tashkil etish bo'yicha nazariy tadqiqotlarning amalda joriy etilishi, dars maqsadini aniqlab olish, maqsad doirasida amalga oshiriladigan vazifalarni belgilash, noodatiy dars samaradorligini aniqlash kabilar haqida so'z yuritiladi.

Tayanch so'z va iboralar: bilim, ko'nikma, malaka, kompetensiya, pedagogik mahorat, metodika, interfaol usullar, ijodkorlik, yaratuvchilik va b.q.lar.

Pedagogning kreativlik sifatlariga ega bo'lishi uning shaxsiy qobiliyatları, tabiiy va ijtimoiy quvvatini kasbiy faoliyatni sifatlari, samarali tashkil etishga yo'naltiradi. Ijodkor shaxsning shakllanishini shaxsning o'zaro mos tarzda bajarilgan ijodiy faoliyat va ijodiy mahsulotlarni yaratish borasidagi rivojlanishi sifatida belgilash mumkin. Ushbu jarayonning sur'ati va qamrovi biologik va ijtimoiy omillar, shaxsning faolligi va kreativ sifatlari, shuningdek, mavjud shart-sharoit, hayotiy muhim va kasbiy shartlangan hodisalarga bog'liq. Zamonaviy sharoitda pedagogning kreativlik sifatlariga ega bo'lishi taqozo etiladi.

So'nggi yillarda yetakchi xorijiy mamlakatlarning ta'lrim tizimida o'quvchi va talabalarda kreativlik sifatlarini shakllantirish masalasiga alohida, jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Buni Bronson, Merriyman (2010 y.), Ken Robinson (2007 y.), Fisher, Frey (2008 y.), Begetto, Kaufman (2013 y.), Ali (2011 y.), Treffinger (2008 y.) va b. tomonidan olib borilgan ko'plab tadqiqotlar, ularning natijalarian ko'rish mumkin.

Pedagog ijodiy faoliyatni tashkil etishda muammoli masalalarni yechish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, shuningdek, pedagogik xarakterdagи ijod mahsulotlarini yaratishga alohida e'tibor qaratishi zarur. Muammoli masala va vaziyatlarni hal qilar ekan, pedagogning masala yechimini topishga ijodiy yondashishi unda hissiy-irodaviy sifatlarning rivojlanishiga yordam beradi. Pedagog o'z oldiga muammoli masalalarni qo'yish orqali mavjud bilimlari va hayotiy tajribalariga zid bo'lgan dalillar bilan to'qnash keladi. Buning natijasida o'z ustida ishlash, mustaqil o'qib o'rganishga nisbatan ehtiyoj sezadi. Pedagogning ilmiy-tadqiqot ishlari va ilmiy yoki ijodiy loyihalarni amalga oshirishi unda kreativlik potensialini yanada rivojlantiradi. Pedagog o'z-o'zidan ijodkor bo'lib qolmaydi. Uning ijodkorlik



qobiliyati ma'lum vaqt ichida izchil o'qibo'rghanish, o'z ustida ishslash orqali shakllanadi.

Kasbiy faoliyatda pedagogning kreativligi turli shakllarda namoyon bo'ladi. Ular quyidagilardir: axborot, shu jumladan, kompyuter texnologiyasi yordamida pedagog - tarbiyachi tomonidan kreativ yondashuv asosida tayyorlanib, ta'lim jarayonida samarali foydalanish mumkin bo'lgan ijod mahsulotlari sanab o'tiladi.

Multimedia – bir necha ko'rinishdagi: elektron shakldagi grafik, matnli, raqamli, ovozli, musiqali, video, audio, fotografiya, harakatlanuvchi obrazlar (animatsiyalar) va boshqa axborotlarni uzatuvchi kompyuter texnologiyalari uchun taalluqli umumiy tushuncha

Elektron albom – rasmlar, suratlar, chizmalar va boshqar grafik tasvirlar hamda ularning izohlarini o'zida aks ettiruvchi elektron shakldagi to'plam

Elektron atlas (yun. "Atlas" – birinchi bo'lib, osmon globusini yaratgan afsonaviy Liviya podshosining nomidan) – muayyan o'quv moduli (o'quv fani) bo'yicha tavsiya etilgan va o'ziga xos grafik tasvirlarga ega bo'lib, o'quv maqsadlariga ko'ra foydalaniladi

Raqamli video lavhalar – o'quv moduli (o'quv fani) bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishga yordam beradigan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan 3D o'lchamdagи zamonaviy o'quv manbai

Virtual stendlar – 1) real obyekt, predmet, jarayon, voqeа va hodisalarning elektron modeli; 2) matn, rasm, sxema, jadval, diagramma va b. shakldagi axborot, jarayon hamda virtual muhitlarni yaratish, saqlash, ishlov berish, raqamlashtirish va tizimli ravishda amalga oshirishni ifodalovchi kompyuterli vosita

Imitatcion virtual trenajyor (ingl. "train" – "tarbiyalamoq", o'qitmoq", "mashq qildirmoq") – elektron shakldagi o'quv-mashqlantiruvchi qurilma bo'lib, u yordamida mehnat faoliyatining real sharoiti modellashтирiladi, muayyan faoliyat (m-n: mashina (mekanizm)ni boshqarish, murakkab stanokda ish bajarish yoki harbiy texnika sirlarini o'zlashtirish) ko'nikmalari shakllantiriladi, ko'nikmalar malakalarga aylantiriladi hamda hosil bo'lgan malakalar takomillashtiriladi.

Pedagogik jarayonda ijodkorlikni rivojlantirish uchun shaxs salohiyatini oshirishga, ijodiy faolligini oshirishga yordam beradigan o'qitish metodlari va texnologiyalaridan foydalanish zarur. Ushbu texnologiyalar shaxsning o'zini o'zi qadrlashni shakllantirishga, o'z imkoniyatlariga bo'lgan ishonchni oshirishga va voqelik bilan adekvat aloqada bo'lishga to'sqinlik qiladigan psixologik qiyinchiliklarni rivojlanishiga yordam beradi. Zamonaviy ta'lim tizimida o'qituvchi faoliyatining ustuvor yo'nalishi. muloqotning dialogik usullariga, yechimni birgalikda izlashga va turli ijodiy faoliyatga beriladi. Bularning barchasi o'qitishning interfaol usullarini qo'llash orqali amalga oshiriladi. Interfaol ta'lim jarayonida o'quvchilar tanqidiy fikrlashni, vaziyat va tegishli ma'lumotlarni tahlil qilish asosida murakkab masalalarni

yechishni, muqobil fikrlarni topishni, puxta o‘ylangan qarorlar qabul qilishni, muhokamalarda qatnashishni o‘rganadilar. Buning uchun darslar juftlik va guruh usullari asosida tashkil etiladi, ilmiy-tadqiqot loyihalari, rolli o‘yinlar qo‘llaniladi.[1] Kreativlikning rivojlantirishning bosh maqsadi bu o‘quvchilarning aqliy faoliyati va mantiqiy fikrlashini rivojalntirishdan iborat. Bunng uchun biz talaba erishgan rivojlanish darajasiga emas, balki bir oz oldinroq qadam tashlab, uning fikrlash qobiliyatidan biroz yuqoriyoq bo‘lgan talablarni qo‘yishimiz kerak. [5]

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Muslimov N.A. Bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarini kasbiy shakllantirish /Monografiya. – T.: Fan, 2004.
2. Muslimov N.A., va boshqalar. Kasb ta’limi o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi/ Monografiya. – T.: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2013.
3. Pedagogika nazariyasi / OTM uchun darslik. Mual.: M.X.Toxtaxodjaeva va b. Prof. M.X.Toxtaxodjaevaning umumiy tahriri ostida. – T.: “Iqtisod-moysi”, 2010. – 136-140-b.
4. Pedagogika: 1000 ta savolga 1000 ta javob / Metodik qo‘llanma. U.I.Inoyatov, N.A.Muslimov, M.Usmonboeva, D.Inog‘omova. – T.: Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, 2012. – 193 b.
5. “Ta’lim sifatini oshirishda xalqaro tajribadan foydalanish” muammo va yechimlar mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy oflayn/onlayn konferensiya materiallari to‘plami, 2- tom, 2021 yil 19 oktyabr.Ernazarova G.O,Kabirova Z.M,Qaynarova I.V